

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XODJAYEV SIDIQ AXMEDOVICH

**UCHLIK TIMSOLINING IJTIMOIIY-FALSAFIY VA BADIY
TALQINLARI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Xodjayev Sidiq Axmedovich

Uchlik timsolining ijtimoiy-falsafiy va badiiy talqinlari.....3

Ходжаев Сидик Ахмедович

Социально-философские и художественные интерпретации символа
триады.....25

Khodjaev Sidik Ahmedovich

Socio-philosophical and artistic interpretations of the triad symbol.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XODJAYEV SIDIQ AXMEDOVICH

**UCHLIK TIMSOLINING IJTIMOIIY-FALSAFIY VA BADIY
TALQINLARI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil13246 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Solijonov Yo'ldoshxo'ja
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rasulova Umida Yo'ldosh qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Hamrakulova Xurshida Quvvatovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «22» avgust soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi 19. Tel: (99873) 244-44-29; faks: (99873) 244-66-03; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axbopot-resurs markazida tanishish mumkin (284 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel: (99873)244-44-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «8» avgust kuni tarqatildi.
(2023 yil «8» avgust dagi 284 raqamli revestr bayonnomasi).



Sh.M. Iskandarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

M.T. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, fil.f.n., professor

Z.B. Qobilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash seminar raisi, fil.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tamadduni tadrijida badiiy-estetik tafakkurning o'rnini ahamiyatli bo'lib, har bir millat, xalqning adabiy, ijodiy merosi uzviy halqalardan iboratdir. Qadimdan yaratilgan badiiyat namunalari yashovchanligining omili inson qalbi va ma'naviyatining markazga qo'yilishi, badiiy did va nafosat tarbiyasiga yo'naltirilgani bilan belgilanadi. O'tgan asrdagi sho'ro mafkurasi mezonlari va qoliplaridan holi ravishda taraqqiy etayotgan bugungi so'z san'ati namunalari endilikda yuksak badiiylik, xolislik o'zidan bormoqda. Shu bois ham o'tmish merosimizdagi adabiy-badiiy asarlarni qay etish, tadqiq qilish ehtiyoji tug'ilmoqda. Bu esa millat ma'naviyatini yuksa ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan adabiy asarlar tarkibidagi masalalarni zar adabiyot namunalari bilan qiyoslab o'rganish zaruratini tug'diradi. "Ayniqsa, notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo'layotgan, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo'lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so'z san'atining o'rnini va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda"¹.

Dunyo adabiyotshunosligida raqamli timsollar asosidagi asarlar turli xalqlarda mavjudligi e'tirof etiladi. Tarixi eng qadimgi davrlarga borib tutashuvchi bunday asarlar genezisini, funksional xususiyatlarini tadqiq etish, birinchidan, jahon ma'naviyati va madaniyati tarixi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchidan, o'zbek millatining badiiy tafakkuri tarixini o'rganish va o'rgatish, targ'ib etish uchun ham muhimdir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida jamiyatning barcha sohalariga e'tibor qaratish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'at sohalarini yanada rivojlantirish shart-sharoitlari belgilab berilgan. Jahon, xususan, o'zbek xalqi ulug' siymolari tomonidan yaratilgan adabiy-madaniy, tarixiy merosni ilmiy jihatdan yaxlit, atroflicha tadqiq etish jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Raqamli timsollarga asoslangan asarlar genezisi, taraqqiyotini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi oldidagi dolzarb, tadqiq etilishi zarur masalalar sirasidan hisoblanadi.

O'zbek adabiyotshunosligida, shuningdek, Sharq adabiyotida ham raqamlar bilan bog'liq, xususan, uchlik timsoliga mansub asarlarga atroflicha munosabat bildirilgan. Turli raqamlarning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-axloqiy ma'noda qo'llanishi ularning vazifaviy jihatlari, asar tarkibida muayyan raqam bilan bog'liq holda muallifning fikru g'oyasi berilishi kabi qator masalalarni o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiy asarlar tarkibidagi raqamli timsollar asarlarning o'zaro o'xshashligi syujet va kompozitsiyada, obrazlar talqinida, mohiyat va shaklda ekanligi kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, ularning tasvir ko'lami, ifoda va bayon yo'sini, uslubiy jihatlari va poetik xususiyatlari o'ziga xosdir. Analogik jihatdan

¹Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг', ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.:Ўзбекистон НМИУ, 2019. – Б. 340.

yaqin asarlardagi o‘zaro o‘xshash syujetlar zaminida milliy o‘ziga xoslik, realiyalar, milliy kolorit o‘z ifodasini topgan. Geografik joylashuvi bir-biridan yiroq bo‘lgan ikki xalq adabiyotida o‘xshash syujet sxemalari uchrashi ularning o‘zaro adabiy aloqalaridan yoxud muayyan vaziyat natijasida mustaqil holatda paydo bo‘lganligidan dalolatdir. Bunda bir tomondan syujetning mavjudligi nazarda tutilsa, boshqa tomondan asarlar o‘rtasidagi tipologik o‘xshashlikni ham e‘tiborga olish kerakligi anglashiladi.

Turli davrlarga mansub raqamli timsollar talqini syujet sxemasi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy jihatlari, strukturasining o‘xshashligi jihatidan uyg‘unlik kasb etadi. Jahon, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi asarlar o‘rtasida mushtarak va differensial jihatlar mavjudligi ularni ilmiy jihatdan o‘rganish zaruriyati borligini hamda mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi” PF-4794-sonli farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni, 2017- yil 17- fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini rashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzuidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni 2019-yil 10-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni, 2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va rus adabiyotshunosligida xalq og‘zaki ijodi janrlari haqida E.Taylor, L.Levi-Bryul, YE.Lefler, I.Braginskiy, V.Anikin, Y.Kruglov, I.Levin, D.Lixachyov, G.Permyakov, V.Dilikova, L.Mijit kabi olimlarning ilmiy ishlarida e‘tiborli fikrlar mavjud². Jumladan, E.Taylor,

² Тайлор Э.Б. Первобытная культура. Т. 1. СПб, 1896. С 234; Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. – Москва: Издательство Академии наук, 1956. – С. 259. ;Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор.-Москва,1957.; Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество.-Ленинград,1987.;Левин И. Введение в кн.: Свод тадж.фольклора., т.1-Басни и сказки о животных. - М., 1981.;Лихачёв Д.С. Первые семьсот лет русской литературы// Повесть

L.Levi-Bryul, YE.Lefler kabi olimlar ibtidoiy sanoq tizimining paydo bo'lishida sonlar bilan bog'liq e'tiqodning ta'sirini o'rgangan bo'lsalar, rus olimlari o'z e'tiborlarini rus folklori, xalq poetik ijodi, o'rta asrlar rus adabiyotidagi "sehrli" sonlarning diniy va ilmiy mohiyatini ochib berishga qaratganlar. Xususan, N.Jukovskaya qalmaq eposidagi an'anaviy raqamlarni, tuvalik tadqiqotchi L.Mijit oltoy xalqlari folkloridagi, V.Dilikova Tibet agiografik adabiyotidagi uchlik bilan bog'liq obrazlarni tadqiq qilganlar. Qozoq olimi A.Bisenbayevning qadimgi turkiy xalqlarlar miflariga bag'ishlangan tadqiqotida raqamlar bilan bog'liq fikrlar aytib o'tilgan³.

O'zbek adabiyotshunosligida ham raqamlar bilan bog'liq muammolar bir qadar o'rganilgan. Folklorshunos G'.Jahongirov bolalar folklorida turli raqamlarning qo'llanishi qofiyalar talabi bilan bog'liqligini va ular ma'lum darajada poetik qonuniyatlarga asoslanishini ko'rsatib o'tgan⁴. Adabiyotshunos K.Imomov o'zbek xalq prozasidagi an'anaviy uchliklarning syujetni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. M.Jo'rayevning ilmiy tadqiqotlarida "sehrli" raqamlarning folklor manbalaridagi talqinlari asosidagi masalaga oid ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan⁵. Q.Yulchiyev o'z tadqiqotlarini she'riyatdagi birlik va uchlik poetikasiga bag'ishlagan⁶. Tadqiqotchi Y.Ziyayeva o'zining Oybekning "Qutlug' qon" romanida "oshiq – ma'shuqa – raqib" obrazi talqinini asardagi sevgi uchligi misolida tahlil qiladi⁷.

Adabiyotshunoslikka oid to'plam va lug'atlarda ham masallarda uchraydigan raqamlarga oid nazariy ma'lumotlar berilgan⁸. Jumladan, raqamli timsollar asosidagi obrazlar universiallik kasb etishi, masalning qadimdan ommalashib, uning insonlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgani, qadimgi yozma manbalarda raqam va mohiyatan unga yaqin tushunchalar keng tarqalgani ta'kidlanadi⁹.

Ushbu tadqiqot faqat raqamli timsollar emas, shu tipdagi asarlarning milliy-hududiy jihatdan farqi, raqamlarning mumtoz adabiy asarlar tarkibida qo'llanilishi, ularning genezisi, tipologiyasi, funksional jihatlari ilk marta tahlil qilingani bilan avvalgi tadqiqotlardan farqlanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Farg'ona davlat

временных лет. Сборник произведений литературы Древней Руси. – Москва: Эксмо, 2008.; Пермяков Г. Л. Грамматика пословичной мудрости // Пословицы и поговорки народов Востока. – М., 1979.; Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. – М., 1988.; Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки. – М., 1970. Дылыкова В.С. Тибетская агиографическая литература. М., 2015, Стр. 352., Мижит Л.С. Тройственные образы в мифологии и фольклоре тувинцев. [http:// www. tuva.asia/journal](http://www.tuva.asia/journal).

³ Бисенбаев А.К. Мифы древних тюрок. Алматы: Ан-Арыс, 2008.

⁴ Жахонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. Т. «Фан» нашриёти 1976.

⁵ Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида «сеҳрли» рақамлар.Т. «Фан» нашриёти 1991 й.

⁶ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик шеър поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Фарғона, 2017. – 161 б; Ҳозирги ўзбек шеърлятида макон ва вақт категорияси (кичик лирик шеърлар мисолида). Филология фанлари доктри диссертацияси. Фарғона, 2021. – 266 б.

⁷ Зияева Ю.Т. Ойбекнинг «Қутлуғ қон» романида «ошиқ – маъшуқа – рақиб» образи талқини. «Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent – 2022. Б. 109-113.

⁸ Адабий турлар ва жанрлар. 2 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1990; Литературный энциклопедический словарь. – Москва, 1987.; Куронов Д.,Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.-Тошкент, Академнашр, 2010.

⁹ Куронов Д.,Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.-Тошкент, Академнашр, 2010. –Б.161.

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Poetika muammolari” yo‘nalishi, adabiyotshunoslik kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy adabiyotda uchlik timsolining o‘rni, badiiy-estetik vazifasi, poetik obraz sifatidagi ishtiroki, adabiy asarlar tarkibidagi raqamli timsollar, xususan, uchlik asosidagi tushunchaning ahamiyati, genezisi, zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi qahramonlar xarakteri bilan bog‘liq muammolarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli timsollar bilan bog‘liq atamalarning lug‘aviy, ilmiy istilohi, nazariy jihatlarini tavsiflash, raqamli timsollar, xususan, uchlik asosidagi asarlarning universal tabiati, funksional jihatlari, bunday asarlarning hayotiy hodisalar bilan bog‘liq holda qo‘llanishi masalasini o‘rganish;

uchlik timsolining ijtimoiy voqelik bilan o‘zaro aloqasi, uchlikning qadimgi adabiyotda qo‘llanilishi va funksional xususiyatlari, raqamning turli tushunchalar bilan munosabatini tadqiq etish;

uchlikning asar tarkibida qo‘llanilishi, bunday asarlarning struktur-kompozitsion tarkibidagi o‘rnini aniqlash;

mumtoz dostonlar va badiiy asar tarkibidagi raqamlarning g‘oyaviy-mazmuniy xususiyatlari, badiiy obraz yaratish masalalarini tahlil qilish;

uchlik timsoli ishtirok etgan asarlarda tarixiy va badiiy obrazlarning o‘ziga xos ifodalanishini ko‘rsatish;

uchlik timsoli aks etgan asarlarda tarixiy shaxs obrazi va uning boshqa asarlarda majoziy ma‘no kasb etishi, bunday asarlarda milliy o‘ziga xoslik, realiyalar va milliy kolorit ifodalanishini asoslash;

uchlik timsoliga xos motivlarning tarixiy voqelik bilan uyg‘unligi, motivlarning universallik xususiyati, real voqelik va badiiy to‘qima masalasini o‘rganish.

Tadqiqotning obykti sifatida uchlik timsoli mavjud bo‘lgan badiiy asarlarga – S.Siyoyevning “Yassaviyning so‘nggi safari”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, T.Jo‘rayevning “Bozor dunyo”, Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romanlariga, shuningdek, mavzudan kelib chiqib, zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalari, xalq kitoblari, folklorga oid asarlarga ham murojaat etilgan.

Tadqiqotning predmetini jahon, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalari tasvirlangan uchlik timsolidagi muallif g‘oyaviy-badiiy niyatining ifodalanishi, badiiy mahorati, asar tarkibidagi uchlik timsoli bilan bog‘liq motivlarning kompozitsion-struktur tuzilishi, asarda ilgari surilgan g‘oya va masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Adabiy asarlar tarkibidagi uchlik timsollarining funksional jihatlari, shu kabi namunalarning kompozitsion struktur tuzilishi, shoir va adiblarning mahorati masalasi, uchlikning funksional tahlilini o‘rganishda tipologik, tarixiy-madaniy, psixologik, biografik, struktural, germeneytik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

raqamlarning mifologik asoslari, genezisi, qadimiy tasavvur va tushunchalar asosida soʻz sanʼatiga koʻchishi, jumladan, uchlikning turli davrlardagi ijtimoiy-madaniy munosabatlar bilan oʻzaro bogʻliqligi asoslangan;

uchlik timsoli arxetipining turli kombinatsiyalari maʼlum bir xalq turmushi va xususiyatlarini aks ettirishi, muayyan raqamning badiiy matn kontekstidagi ilmiy istilohi, gʻoyaviy-falsafiy xususiyatlari, raqamlar ishtirokidagi syujetlarning badiiy jihatlari, xususan, uchlik timsolining funksional xususiyatlari dalillangan;

uchlik bilan bogʻliq asarlarning qadimiy namunalarida syujet sxemasi, motiv va obrazlari aynan oʻxshash ekanligi aniqlanib, asarlarning struktur-kompozitsion tuzilishi, mohiyati va badiiyati yoritilgan.

uchlik timsolining hozirgi oʻzbek nasrida badiiy asar shakl va mazmun birligini taʼminlovchi muhim unsur ekanligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Mumtoz va zamonaviy adabiy asarlar tarkibidagi raqamlar bilan bogʻliq tushunchalar genezisining oʻrganilganligi adabiyotshunoslik nazariyasi uchun muhim ilmiy-nazariy maʼlumotlar beradi; raqamli timsol ishtirok etgan turli adabiy shakllardagi struktur tuzilish, obrazlar tizimi, gʻoyaviy, mazmuniy jihatdan qiyoslash boʻyicha ilmiy adabiyotlar yaratish; oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotidagi asarlar tipologiyasi boʻyicha tekshirishlar olib borish boʻyicha uslubiy adabiyotlar yaratish; istiqlol mafkurasi va badiiy tafakkur tadrijining eng soʻnggi talablari asosida uchlik timsoli aks etgan asarlar tahlilining berilishi oʻqituvchilar faoliyatida qoʻllanishi mumkin; oʻquv qoʻllanma, monografiyalar yaratish; mumtoz adabiyot sohasi boʻyicha tavsiyalar va koʻrsatmalar ishlab chiqish moʻljallangan. Olinajak natija ilm-fanning muhim sohasi boʻlgan oʻzbek adabiyotshunosligining rivojiga hissa boʻlib qoʻshiladi, tipologiya boʻyicha tadqiqotlar uchun nazariy asos boʻla oladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda ilmiy muammo aniq belgilab berilgan, tadqiqot davomida kelingan xulosalar genetik, tipologik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, germeneytik tahlillar bilan asoslab berilgan, muammoni oʻrganishda oʻzbek va boshqa jahon xalqlari adabiyotiga oid ishonchli manbalarga tayanilgani hamda oʻzining ilmiy asosini topgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi nazariy xulosalar mumtoz va zamonaviy oʻzbek adabiyoti, adabiyot nazariyasi boʻyicha ilmiy ishlarni yaratish, oliy taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan adabiyotshunoslikka oid fanlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, nazariy xulosalar uchlik timsoli genezisi hamda badiiyati takomili boʻyicha mavjud maʼlumotlarni toʻldiradi va boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uchlik timsolining paydo boʻlish omillari, badiiy asarda tutgan oʻrni haqidagi qarashlar adabiyotshunoslik nazariyasi, oʻzbek adabiy tanqidchiligi tarixi, zamonaviy oʻzbek nasri, badiiy tahlil asoslari, nazariy poetika kabi fanlardan yaratiladigan darslik va oʻquv

qo‘llanmalarning takomillashuviga xizmat qiladi, adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda qo‘shimcha manba sifatida yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uchlik timsolining ijtimoiy va badiiy talqinlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamlarning mifologik asoslari, genezisi, qadimiy tasavvur va tushuncalar asosida so‘z san‘atiga ko‘chishi, jumladan, uchlikning turli davrlardagi ijtimoiy-madaniy munosabatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha ilmiy-nazariy xulosalardan “Jadid adabiyoti tarixi” darsligini tayyorlashda keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug‘iga asosan taqdim etilgan 538-283-raqamli ruxsatnoma). Natijada uchlik timsoli tahlili bilan bog‘liq ma‘lumotlar bilan o‘rta ta‘lim maktablaridagi adabiyot fanining o‘quv-metodik materiallari boyitilgan;

uchlik timsoli arxetipining turli kombinatsiyalari ma‘lum bir xalq turmushi va xususiyatlarini aks ettirishi, muayyan raqamning badiiy matn kontekstidagi ilmiy istilohi, g‘oyaviy-falsafiy xususiyatlari, raqamlar ishtirokidagi syujetlarning badiiy jihatlari, xususan, uchlik timsolining funksional xususiyatlariga oid illyustrativ materiallardan Andijon davlat universitetida 2017-2018-yillarda bajarilgan “Adabiyotshunoslikning nazariy kurslari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish” nomli OT-A1-46 raqamli ilmiy texnik loyiha ishida foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2022 yil 1-dekabrda 39-04-4631-son ma‘lumotnomasi). Natijada lug‘atga kiritilgan istilohlarning ilmiy-istilohiy mazmuni boyigan;

uchlik bilan bog‘liq asarlarning qadimiy namunalarida syujet sxemasi, motiv va obrazlari aynan o‘xshash ekanligi aniqlanib, asarlarning struktur-kompozitsion tuzilishi, mohiyati va badiiyati talqinlari va ularning tahliliga oid natijalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg‘ona viloyat bo‘limining Tanqid va adabiyotshunoslik kengashi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg‘ona viloyat bo‘limining 2023-yil 22-fevralda 7-son ma‘lumotnomasi). Natijada badiiylikning konseptual manzarasini ishlab chiqish jarayonlarida uchlik timsoliga tayanilgan.

uchlik timsolining hozirgi o‘zbek nasrida badiiy asar shakl va mazmun birligini ta‘minlovchi muhim unsur ekanligi xususidagi xulosalardan 2022-yilda Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining “Intervyu”, “Jondan aziz”, “Ma‘naviyat sarchashmalari” ko‘rsatuvlari hamda “Yoshlar kundaligi” nomli radioeshittirishlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 4-aprelda 01.02/80-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu ko‘rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni chuqurlashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan hamda ko‘rsatuv va eshittirishlarda ko‘tarilgan adabiy masalalarning ilmiy asosi kuchaytirilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha

jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 1ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Uchlik timsolining genezisi va tadrijiy takomili”** deb nomlanib, bobning **“Uchlik arxetipining tarixiy asoslari va manbalari”** nomli dastlabki faslida badiiy adabiyotda uchlik timsoli asosidagi mifik tushuncha va tasavvurlarning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik, axloqiy-ta‘limiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Raqamlar garchi matematika faniga tegishli bo‘lsa-da, badiiy asarda ham muhim ahamiyat kasb etib, yozuvchining g‘oyaviy-badiiy niyatini ifodalashga xizmat qiladi, alohida badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shuning uchun ham qadimdan raqamlarga alohida e‘tibor berilgan. Mashhur yunon olimi Pifagor aytganidek, raqamlar o‘z qonunlariga ega bo‘lib, borliq, tabiat va xos quvvatga egadir. Odatda raqamlar xohish, rag‘bat va hatto o‘z harakatlari bilan namoyon bo‘ladi. Inson hayotida gap so‘zlar yo‘qki, raqamlar ta‘sirida bo‘lmagan bo‘lsa. Butun borliq 9 ta raqam asosida tabiatning sir-asrorini o‘zida aks ettirgan. Qadimda muqaddas, baxtli va sehrli raqam xisoblangan uch – uchburchak ramzi bo‘lib, ustuvorsiz birlik, oradan ketgan bugun va ertani ifodalagan, uchlikning shiori xursandchilik hisoblangan¹⁰. U asosan amalga oshirilgan harakatlarning muqaddasligini, jasurlik va ulkan ma‘naviy hamda jismoniy kuchning ijobiy sifatlarini ham ko‘rsatadi. Bundan tashqari, 3 raqami “ibtido, o‘rta va intihoga ega bo‘lgan ma‘lum darajadagi izchillikning nihoyaga yetganligi va mukammalligining” ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu raqamning miflarda ko‘plab uchrashining asosiy sababi aynan mana shundadir.

Antik dunyoning klassik davri estetikasida son asosiy tamoyil hisoblangan. U hozirgi son tushunchasidan tubdan farq qilib, hisobning oddiygina natijasi bo‘lmagan, balki o‘zida tartib g‘oyasini mujassam qilganligi bois yaxlit struktura hisoblangan. Nihoyat, u moddiy-ijodiy kuchga ega bo‘lib, narsalarni barpo qila olgan yoki parchalab tashlay olgan, demak, ularni anglash mumkin bo‘lgan. Son

¹⁰ Исомиддинов Ф. Рақамлар оламида. – Фарғона, 2021. – Б.3.

haqidagi ta'limotni Pifagor va uning izdoshlari ilgari surganlar. Ko'plab faylasuflar, jumladan, Anaksagar, Geraklit, Empedokl, Levkipp, Platon ushbu ta'limotga tayanganlar, falsafiy maktablar son haqidagi ta'limotni yanada kengaytirganlar va chuqurlashtirganlar. Masalan, Plotinning "Sonlar haqida" yoki soxta-Yamvlixning "Arifmetikaning teologumenlari"¹¹ (asarda Pifagor konsepsiyasi bo'yicha o'ngacha bo'lgan sonlarning tizimlashtirilgan bayoni berilgan). Shunday qilib sonning birlamchi asos ekanligi haqidagi ta'limot butun antik davrga tegishlidir.

Tahlillar natijasida qadimgi yunon miflari aksariyat hollarda uchlik asosiga qurilgani ma'lum bo'ldi. Masalan, Zevs – Alkmena – Gerakl. Afsonaviy Gerakl yarim ma'bud, ya'ni ma'budlarning ma'budi Zevs bilan foniy ayol bo'lgan Alkmenaning farzandi. Shu tariqa, cheksiz Fazodan hamma narsa – butun olam va umrboqiy xudolar paydo bo'ldi. Demak, antik davrda dastlabki uchlik tushunchasi Fazo – butun olam – umrbokiy xudolar shaklida namoyon bo'lgan va badiiy adabiyotga kirib kelgan.

Uchlikka asoslangan mifologik tasavvur islomiy qarashlarda ham o'ziga xos tarzda akslanadi, masalan, Oloh tomonidan yaratilgan olamninning o'zi ham uchlik (triada)ga asoslangan, Ya'ni, 1. Osmon; 2. Yer; 3. Ikkovining o'rtasida inson – Osmondan tushdi, yashadi, o'ldi – yerga kirdi, "Oshiq – ma'shuqa – raqib" uchligining asosi Qur'oni Karim va boshqa ilohiy kitoblarda bo'lgan Odam ato, momo Havvo va iblis uchligida aks etgan. Keyinchalik bu uchlik folklor janrlari va yozma lirik, epik, dramatik janrlardagi badiiy syujetlar markazini egallagan.

Dehqonchilik va ziroatchilik borasidagi tushunchalarda ham uchlik asosiga qurilgan ma'lumotlar uchraydi: "Buyuk ma'buda Demetra bag'oyat qudratlidir. U yerga hosildorlik bag'ishlaydi, uning barakali kuch-quvvatidan bahra olmagan narsa na salqin o'rmonlarda, na o'tloqlarda va na unumli shudgorda o'sadi"¹². Bundan keyingi rivoyatlarda ham uchlik asosidagi ma'lumotlar bayoniga duch kelamiz: Zaminga hosildorlik baxsh etuvchi buyuk ma'buda Demetraning o'zi odamlarni ularga rizqu ro'z ulashuvchi ekinzorlarga qanday ishlov berishni o'rgatdi. U Elevsin podshosining navqiron o'g'li Triptolemga bug'doy urug'ini taqdim etdi, birinchi bo'lib, Elevsin yaqinidagi Rariy dalasini uch marotaba shudgor qildi va qora tuproqqa urug' sochdi.

Tarixiy-afsonaviy xarakterda bo'lgan voqea hodisalarda ham syujet elementlari, g'oya hamda tafsilotlarda uchlik asosiga qurilgan hikoyalar o'rin olgan: Troya urushining boshlanishiga "ma'budlarning eng go'zaliga" degan yozuv bitilgan oltin olmani talashgan uch buyuk ma'buda – Zevsning xotini Hera, jangovar Afina va oltin sochli muhabbat ma'budasi Afrodita o'rtasida bahs sabab bo'lgan.

Islom dini kirib kelishi bilan motam marosimlari ham ko'pgina o'zgarishlarga uchradi. Uch, yetti, qirq magik raqamlari mifologik xususiyat va belgilarini saqlagan bo'lsa ham, islomiy aqidalar bilan uyg'unlashtirildi, bu esa miflar bilan

¹¹ Лосев А.Ф. История античной эстетики (ранняя классика).М.: "Высшая школа", 1963

¹² Кун Н.А. Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. Самарқанд: "Зарафшон", 2005.— Б.26.

bog‘liq urf odatlarning diniy qadriyatlar bilan sinkretik xolatda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

XX asrning buyuk faylasufi va ruhshunoslaridan biri bo‘lgan shveysariyalik Karl Gustav Yung fanga “arxetip” atamasini olib kimgandan keyin dunyoning turli burchaklarida yaratilgan mifologik naql, afsona va rivoyatlarni bir-biriga bog‘lashga erishildi. Uning “...barcha xalqlar va davrlarda yaratilgan mif (mifologema)lar butun insoniyatning jamoaviy g‘ayrishiurida umumiy arxetipik manbaga ega”¹³, degan g‘oyasi jozibadorligi bilan olimlar diqqatini o‘ziga tortdi. Yungning fikricha, jamoaviy ongsizlik (g‘ayrishiuriiy tarzda amalga oshadigan o‘y-tuyg‘ular, harakatlar) arxetiplar (ya’ni, “birlamchi modellar”) deb nomlanuvchi kuchli birlamchi psixik obrazlardan iborat. Arxetiplar – tug‘ma g‘oyalar yoki xotiralar bo‘lib, ular odamlarni idrok etish, qayg‘urish va hodisalardan ta’sirlanib ma’lum tarzda munosabat bildirishga moyil qiladi. Darhaqiqat, bu biz o‘ylagandek, xotira yoki obrazlar emas, balki aynan moyil qiluvchi omillar bo‘lib, odamlar ularning ta’sirida o‘z xulq-atvorlarida qaysidir obyekt yoki xodisani qabul qilish, fikrlash va harakat qilishda universal modellarini amalga oshiradilar. Aynan konkret vaziyatga – masalan, ota-ona, notanish odam, ilon yoki o‘lim bilan qo‘qqisdan, kutilmaganda to‘qnashib qolganda emotsional, kognitiv va axloqiy munosabat bildirish tug‘ma xususiyat hisoblanadi.

Yung bayon qilgan ona, bola, qahramon, donishmand, Quyosh ma’budi, mug‘ombir, Xudo va o‘lim arxetiplari qatoriga uchlik timsolini ham qo‘shish mumkin, deb hisoblaymiz.

Bobning ikkinchi fasli **“Jahon va o‘zbek folklorida uchlik timsolining poetik kombinatsiyalari”** deb nomlangan bo‘lib, unda uchlik timsolining folklor namunalaridagi talqini tahlilga tortilgan.

Jahon xalqlari og‘zaki ijodi, xususan, ertaklar va dostonlarda uchlik timsoliga oid ko‘rinishlarni mushtarak va o‘xshash xolatda uchratishimiz mumkin. Masalan, ko‘plab sharqu g‘arb xalqlarining ertaklari: “Jil bil sar (mujik, starik) i bilo u nego tri sina ili tri docheri”. “Bor ekanda yo‘q ekan, bir podsho (dehqon, xunarmand, chol) bo‘lib, uning uch o‘g‘li (uch qizi) bo‘lgan ekan”, degan so‘zlar bilan boshlanadi. Ertak qahramonlarining boshidan kechirgan ko‘plab sinovlari, sarguzashtlari ham dunyoning bir chetidagi podsholikda, davlatda yoki yurtda sodir bo‘ladi. Ertak qahramonlari uch yo‘ldan birini, yoki toshdagi: “Chapga borsang, boshing ketadi. O‘ngga yursang, hayotingdan ajraysan. To‘g‘riga ketsang, umuman qaytmaysan” kabi yozuvlardan birini tanlashi kerak bo‘ladi. Ertak qahramonlari maqsadga yetishdan oldin turli sinovlardan o‘tadilar. Bu sinovlar ham odatda uchta bo‘ladi.

Xalqimizning qadimiy udumlariga ahamiyat bersak, “Yer qoidasi uch, uchdan keyin puch, “oting bir qoqilmasin, bir qoqilsa uch martagacha boradi kabi iboralarni uchratamiz. Qadimiy urfga ko‘ra, nikoh to‘ylarida kelin-kuyov gulxan atrofida uch marotaba aylantiriladi. Marhum vafotining uchinchisi kuni maxsus marosim tashkillanadi. Turmushda o‘ziga xos qoidaga aylanib qolgan uchlikdan hatto hozirgi davrda ham foydalaniladi. Masalan, qo‘lni uch marotaba yuvish,

¹³Юнг К. Душа и миф:шесть архетипов. Гос.библиотека Украины для юношества. – Port-Royal, 1996. – С. 6.

choyni uch marta qaytarish. Kinoteatr yoki konsert zallarida tomosha boshlanishidan avval uch marta qo‘ng‘iroq chalib ogohlantiriladi.

Adabiyotshunos K.Imomov o‘zbek xalq ertaklaridagi “an’anaviy uchliklar – uch yo‘l, uch aka-uka, uch ot, uch kecha-kunduz syujet harakatining bir qolipda sekin davom etishini ta’minlaydi”¹⁴, deya “sehrli” uchlik mohiyatini baholaydi. Bizningcha, uchlik faqat harakatning bir qolipda, sekin-asta davom ettirish bilangina bog‘liq bo‘lmaydi, balki ancha keng vazifa bajaradi. Agar syujetni bir qolipda sekin davom ettirish zarur bo‘lsa, boshqa raqamni ham tanlash mumkin bo‘lardi. Chunki istagan raqam bu vazifani bajarishi mumkin, biroq aynan uch raqamini afsonaviylashtirish, sehrli deb bilish bilan bog‘liq bo‘lsa, xalq ertaklarida bu raqam qator estetik vazifalarni ham bajaradi. “Uch og‘ayni botirlar”dagi otaning farzandlariga aytgan uchta gapidan keyingi sarguzashtlar rivojida bilim (aql), kuch, botirlik kabi hislatlar asosiy rol o‘ynashiga ishora qilinadi. Bu esa ertakning g‘oyaviy mukammalligini ham ta’minlaydi.

Bunday an’anaviy uchliklar ertak syujetini harakatga keltiradi. Qahramonlarga navbatdagi sarguzasht uchun yo‘l ochadi, fabulaning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Voqea va qahramonlarni qiyoslash imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Demak, ertaklarda uchlik o‘ziga xos g‘oyaviy, badiiy-estetik funksiya bajaradi, ya’ni bunday timsolning to‘laqonli shakllanishi, syujet chiziqlarining qiziqarli va izchil bo‘lishi, voqea, qahramonlarni qiyoslash kabi fazilatlarini ro‘yobga chiqaradi. “Uchlik”- bu birliklarning turli variantlaridan (1+1+1, 1+2, 2+1, 4-1,...) tajassum topgan “uch” raqami hisoblanadi. “Uch» raqami o‘zbek xalq ertaklarining kompozitsiyasini belgilovchi muhim badiiy elementlardan biridir.

Misollarga tayangan xolda aytish mumkinki, “an’anaviy uchliklar nafaqat syujet xarakatining bir qolipda sekin davom etishini ta’minlaydi”, shu bilan birgalikda dunyo xalqlarida ilohiylashtirilgan uch raqami qator estetik vazifalar bajaradi. Rus olimi akademik N.I.Konradning pentatonika haqidagi fikriga¹⁵ qo‘shilgan holda “Uch” sonida ham xilma-xillikning oliy holati sifatida bus-butunlik g‘oyasi mujassam topgan va uchlik syujet qurilishining hamma elementlariga daxldor bo‘lganligi uchun deyarli barcha xalqlar ertaklarida uchraydi, deb aytishimiz mumkin.

Folklorshunos olim Shomirza Turdimov tinglab, o‘qish jarayonida sodir bo‘lgan xolatda o‘ziga xos uchlikni: 1. Ishtirokchi – ishqiboz, 2.Tomoshabin – ishqiboz va 3. O‘quvchi, tinglovchi – ishqiboz uchligini e’tirof etadi. Dostonning boshlama qismida esa uning mohiyatini anglashga yordam beruvchi so‘z – obraz – motiv timsollar uchligini ko‘ramiz.

Yuqorida tahlilga tortilgan uchlikka asoslangan ramz, timsol va ishoralar muayyan xalqning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotining turli bosqichlarini badiiy-estetik jahatdan tasirli ravishda ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Ularda olg‘a surilgan umumbashariy g‘oyalar har bir davr uchun axloqiy-ta’limiy ta’sirini yo‘qotmaydi.

¹⁴ Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Тошкент. 1980. – Б. 140-141.

¹⁵ Конрад Н.И. Ренессанс ва Навоий. / «Жаҳон адабиёти», 2006 йил 2-сон. –Б. 54.

Ishning ikkinchi bobi **“Yozma manbalarda uchlik timsoliga asoslangan komponentlar”** deb nomlanib, uning birinchi faslida **“Agiografik xarakterdagi asarlarda uchlik timsoli talqinlari”** o‘rganilgan.

Agiografiya grekcha “agios” muqaddas, avliyo va “yozaman” ma’nolarini anglatib, ilohiyot haqidagi fan hisoblanadi. Bu fan payg‘ambarlar, avliyo-anbiyolar hayotini va muqaddaslikning tarixiy, cherkovga oid jihatlarini o‘rganadi.

Xristianlarning muqaddas kitobi “Injil”da Xudo uchlikni yaxshi ko‘radi, degan ibora bor. Bu qarash islomiy qadriyatlar zamirida “Yakkalik yaratganga xos” tarzida o‘zgargan bo‘lib, albatta, bu yakkaxudolikka intilish natijasidir. Nasroniylardagi uchlikdan biri bo‘lgan O‘g‘il xudo esa Iso payg‘ambarga aylantirilgan (xuddi Tavrotdagi Dovud, Sulaymonlar ham, ma’buddan nabiyarga aylangani singari), Muqaddas Ruh esa Jabroil alayxissalom tarzida talqin qilina boshlagan.

Sharq agiografik adabiyotida biz uchlik timsolining mujassam namunasini, ayniqsa, ishq mavzusiga bag‘ishlangan asarlarda yaqqolroq ko‘ramiz. E’tiborlisi shundaki, Alisher Navoiy yuqorida aytilganidek, ishqni uch toifaga ajratadi: 1) Ishqi om (oddiy odamlar ishq); 2) Ishqi majoziy (haqiqat sirlarini majoz suratida kuylovchilar, ya’ni shoirlar ishq); 3) Xoslar ishq (o‘zini haq yo‘liga bag‘ishlagan darveshlar ishq).

Komillikka erishish ham aslida uchlik timsoli orqali amalga oshadi. Masalan: Robiya Adaviya hayotidan olingan quyidagi lavxada Robiya Adaviya – Muhammad payg‘ambar – Haq Taolo uchligi timsolini ko‘rish mumkin. Kunlarning birida Robiya tush ko‘radi, unda payg‘ambarimiz so‘raydi: “Ey Robiya, meni sevasanmi? Y, rasululloh, sizni kim sevmaydi, lekin mening vujudim Haq ishq bilan shu darajada to‘lib-toshganki, boshqa biror narsa sig‘maydi”¹⁶.

Uch xil unsurdan tashkil topgan birlik (triyedinstvo), uchlik (yunon.trias, triados) uch shaxs, tushuncha, hodisalarning birligi sifatida umuminsoniy dunyoqarashlar majmui: mifologiya, din, falsafada alohida o‘rin egallaydi. Uchlik fenomeni dunyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyatida diniy, ramziy ma’noga ega. Ma’lumki, uch soni – mifologik-diniy manbalarda eng ko‘p tarqalgan sonlardan biridir. Shu bilan birga “u uch bosqichdan – paydo bo‘lish, gullab-yashnash, halok bo‘lishdan iborat bo‘lgan “har qanday jo‘shqin jarayonning”, har qanday tizimning (jamiyatning, madaniyatning, har qanday shaxsning, yo‘nalishning, nazariyaning va h.k.) ideal modeli hisoblanadi”¹⁷.

Troitsa (uchlik) – nasroniylar diniy ta’limotida: ota xudo, o‘g‘il xudo va muqaddas ruhdan iborat bo‘lgan yagona xudo deb qabul qilingan bo‘lsa, triada (uchlik) ikki xil ma’noda ya’ni, birinchi uchlik bu, uchta alohida bo‘lak yoki qismdan iborat bo‘lgan butunlik-bir narsa), ikkinchi uchlik Gegelning falsafasida taraqqiyotning uch bosqichlilikini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

Ko‘plab majusiy dinlarda uchliklar bisyor bo‘lgan. Misol uchun Bobil uchligi– Anu, uning o‘g‘li Enlil va Enki qiyofasida namoyon bo‘lgan; Rim uchligida – Yupiter, Yunona va Minerva; va nihoyat, semit uchligi - Ota, O‘g‘il va

¹⁶ Фариддин Аттор. “Тазкиратул авлиё”. Тошкент. 1992 Б...

¹⁷ Топоров В.Н. Святость и святые в русской духовной культуре. Т.1, М., 1995 Стр.79

Ona. Bunday uchliklardan tashqari bir turdagi uchliklar ham mavjud bo'lgan, misol uchun xindlarda – Braxma, Vishnu va Shiva; forslarda – Ormuzd, Mitra va Axriman; misrliklarda Osiris, Isida va Gor (yoki Empeft, Eyktion va Pta); xoldeylarda – Bel-Saturn, Bel-Yupiter va Bel- Xom (Apollon). Oxirgi Uchlik “Ota” deb atalgan Oliy Xudoning timsoli bo'lgan.

Tuvaliklarning dunyoqarashi quyidagi kosmologik qarashlar tizimiga asoslanadi: Yuqori dunyo – O'rta dunyo – Quyi dunyo (makonga oid struktura), o'tmish – hozir – kelajak (zamonga oid struktura) va uch kosmik doirani birlashtiruvchi, olamning markaziy o'qi hisoblanadi.

Uch xil unsurdan tashkil topgan birlik g'oyasi ko'plab diniy tartib (sistema)larda mujassamlashtirilgan. Misol tariqasida, hind Trimurti uchligi yaratuvchi Tangri, vayron qiluvchi Tangri, asrovchi Tangri; buddizmning “uch bebaho xazinasini”: Budda, Dxarma, Sanxga; nasroniylarning Muqaddas uchligi: Ota-Xudo, O'g'il-Xudo, Muqaddas ruhlarni¹⁸ keltirishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarining diniy-mifologik dunyoqarashida adabiy qahramonlar uchligi alohida o'ringa ega. Masalan, miflar, ertaklar, afsonalarda dunyoning uch: yuqori, o'rta va quyi qavatdan iborat ekanligi haqidagi g'oyani ko'rish mumkin. Uchlik asosiga qurilgan olamning bunday modeli ko'plab Osiyo xalqlarining diniy-mifologik ongiga xosdir.

G'arb va Sharq agiografik asarlari keyingi davr adabiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi va buning natijasi o'laroq bir qator agiografik xarakterdagi asarlar dunyoga keldi. Bunday asarlardan biri buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning “Avliyo Sergiy” qissasidir.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida avliyolar hayoti va faoliyati aks etgan agiografik xarakterdagi asarlarga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib borayotganining quyidagi uchta omilini ta'kidlashimiz mumkin: 1. Mustaqillik sharofati bilan yuzaga kelgan erkinlik, ozodlik va xolis fikr yurita olish;. 2. Diniy e'tiqod, qarashlarga bo'lgan ehtiyoj, asriy qadriyatlarga qaytish; 3. Milliy o'zlikni anglash, tarixiy ildizlarimizni o'rganishga qiziqish.

So'fiylar Ollohning hukmiga bo'yin egish holatini quyidagicha sharhlaydilar: tug'ilmoq bor, o'lmoq bor. Demak, hayot bilan o'lim o'rtasida bizga omonat berilgan fursat bor, hayot – fursat – o'lim diniy-falsafiy uchligi. Tasavvuf ahkomiga ko'ra, chin solik “qol” ilmi (aql bilan egallash mumkin bo'lgan dunyoviy bilimlar) – ma'rifatni egallab, “xol” ilmiga (xisoyot, tuyg'u bilan erishiladigan maqomlar) o'tmog'i lozim. Tariqatdan keyin haqqul yaqin – haqiqat bosqichi keladi. “qol” ilmi – “xol” ilmi – “haqqul” yaqin uchligi. Ma'lum bo'ladiki, har qanday ta'limot ham o'z amaliy faoliyatini uchlik tushunchasi atrofida barpo etadi.

Ikkinchi bobning navbatdagi faslida **“Antik va mumtoz adabiy manbalarda uchlik timsolining syujet chizgilari va tipologiyasi”** o'rganilgan.

¹⁸ Мифы народов мира. Энциклопедия. Электронное издание. М. 2008. Стр 995.

An'anaviy uchliklar nafaqat syujet xarakterining bir qolipda sekin davom etishini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda dunyo xalqlarida ilohiylashtirilgan uch raqami qator badiiy-estetik vazifalarni ham bajaradi.

Yuqoridagi fasllarda ta'kidlanganidek, antik syujetlarda ham, mumtoz adabiyot namunalarida ham genezis masalasi afsona va asotirlarga borib taqaladi. To'g'ri, afsona va rivoyatlarning mazmun-mohiyati, g'oyaviy asoslari davrlar o'tgan sari zamonga moslab bayon etiladi, rivojlantiriladi. Ba'zan tarixiy voqea-hodisalar bilan qorishiq holda avlodlarga yetkaziladi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, antik davrlarga mansub yozma adabiy yodgorliklarda ham uch soniga alohida urg'u beriladi. Voqealar rivojida, yechimda, kompozitsion tuzilishlarda ham uchlik xususiyatlariga e'tibor qaratilgani sezilib turadi. Aksariyat asarlarning nomlanishida ham uch adabiy qahramonga diqqat qaratiladi. Masalan, "Kalila va Dimna" ("Panchatantra") tarkibidagi aksariyat hikoyat va rivoyatlarning nomlanishida ham uch adabiy qahramonning ismlari yoki laqablari o'z aksini topadi. Ona sher, shoqol va ovchi bobi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Voqealar rivoji, g'oyalar tizimi, yakuniy xulosalar ana shu uch qahramon atrofida birlashadi.¹⁹

Arosat haqidagi tushunchalar ham aslida uchlik doirasida yuzaga keladi. Yo'lga o'tlanilgan manzil, yetib borilishi rejalashtirilgan manzil va ular orasidagi masofa ham mavhumroq ko'rinsa-da, uch nuqtaning birikuvidir. Falsafiy sillogizm, ya'ni ikki fikrdan uchinchi mantiqiy xulosa chiqarish, ayniqsa, qadimgi yunon faylasuflari orasida keng tarqalganini hisobga olsak, uchlikning tagzaminida nafaqat konkret qahramon va obrazlar, balki uchlikka asoslangan mantiqiy-falsafiy xulosalarni ham kuzatishimiz mumkin.

Personajlar uchligi qadimgi yunon antik adabiyoti namunalarida, xususan, Ezopning eldan elga o'tib butun dunyoga mashhur bo'lib ketgan, "badiiy-estetik saviyasi juda yuksak, til o'tkirligi, ma'no chuqurligi, ramzlar, tashbehlar, timsollar yorqinligi o'z davrida va keyingi zamonlarda ham ko'pchilikni qoyil qoldirgan"²⁰ masallarining aksariyatida ko'zga tashlanadi. Yuqorida aytganimizdek, ulardan ikkitasi voqea-hodisalar ishtirokchisi, uchinchi personaj esa ana shu voqea-hodisalardan yo axloqiy, yoki falsafiy xulosa chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi. Ezopning "Burgut, zag'cha va cho'pon nomli masalida ayni shu holat ko'zga tashlanadi. "Eshak, qarg'a va bo'ri" masalida ham shu kabi holatni kuzatish mumkin. Mazkur masal syujetida ham personajlar uchligi ishtirokida hayot voqeligidan axloqiy-tarbiyaviy, falsafiy xulosaga kelinadi.

"Tuya, fil va maymun" masalidagi uchlik nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy-siyosiy ruh bilan ham ajralib turadi. "O'zlarini bo'y va kuch jihatidan hammadan ustun bilgan fil bilan tuya jonivorlarning kimni podsho ko'tarish haqidagi mashvaratida tortishib, ikkisi ham men loyiqman, deya bahslashishardi. Shunda maymun aytdiki: "Ikkisi ham podshohlikka yaramaydi: tuya shuning uchunki, u hatto o'zini xafa qilganlarga-da jahl qilolmaydi; fil shuning uchunki, u

¹⁹ Калила ва Димна: (Ҳикматнома) С.Ғаниева таржимаси; - Т.: Истиклол – 1994. – Б. 256.

²⁰ Болтабоев Х, Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд: Қадимги давр. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2012. – Б. 134.

cho‘chqachadan qo‘rqadi, bas, mabodo, bizga cho‘chqacha hujum qilsa, himoya qilolmaydi!”²¹.

So‘z san‘ati tarixida uchlik muammolarini tadqiq etishda qadimgi yunon dramaturgiyasi namunalari ham yetarlicha material beradi. Xususan, Sofoklning shoh Edip qismatiga bag‘ishlangan tragediyasi uch bosqichdan iborat ekanligi, bu bosqichlarda uch avlod taqdirining hikoya qilinishi e‘tiborni tortadi.

Qadimgi yunon dramaturgiyasining yana bir mashhur namoyandasi Esxil ijodiga mansub “Zanjirband Prometey” tragediyasida Zevs – Prometey – Gefest uchligiga asoslangan syujet chizig‘ini kuzatishimiz mumkin.

Zevsning amri bilan Gefest o‘z do‘sti Prometeyni qoyaga zanjirband qilishga majbur bo‘ladi. Natijada Zevs – Prometey – Germes uchligi yuzaga keladi. Bundan tashqari Zevs– Gera – Io sevgi uchburchagi ham asar kompozitsiyasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Demak, uchlik timsoli shaklan raqamga aloqador bo‘lsa-da, uning zamirida ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, badiiy-estetik funksiyalarni ham ado etish niyati mujassam bo‘ladi.

Mavzuni shu tarzda genezis va tadrijiy takomil asosida hamda xronologik tartibda tadqiq etish kutilgan natijalarga erishishda muhim omildir.

Tadqiqotning uchinchi bobida **“Zamonaviy o‘zbek adabiyotida: uchlik timsolining g‘oyaviy-falsafiy va badiiy tamoyillari”** haqida so‘z boradi. Bobning birinchi faslida **“Badiiy adabiyotda uchlik timsolining o‘ziga xos jihatlari”** o‘rganilgan.

Badiiy adabiyotga mansub namunalarda voqelikni badiiy idrok etish hamda badiiy matn sifatida yaratish jarayonida yozuvchilar asar arxitektonikasiga turli yo‘llar bilan yondashganligi kuzatiladi. Xususan, ba‘zi asarlarda kompozitsiya, ba‘zilarda esa obrazlar uchlik tamoyiliga asoslanadi. Zero, badiiy asar yaratilishida ijodkor qo‘llagan uchlik tamoyili va uning asar kompozitsiyasiga alohida xususiyat sifatida singdirib yuborilishi badiiy asarning shakl va mazmun birligini ta‘minlovchi muhim unsur sanaladi.

Tadqiqotchilar asar kompozitsiyasida uchlik timsolining o‘rniga alohida e‘tibor qaratganlar. Masalan, “lirik xorlardagi strofa, antistrofa va epodlarni almashinib turuvchi uchlik» deb atashgan.²² To‘g‘ri mazkur ta‘rif ko‘proq dramatik yoki tragik asarlarga nisbatan qo‘llangan. Lekin biz uchun muhimi asar kompozitsiyasida uchlik tamoyilining mavjudligi birlamchidir. Boshqa bir nazariy manbada esa “...nima bo‘lganda ham, shubhasiz, janriy identifikatsiyaning mahsuldorligini barcha asar strukturasi asosida “qahramon-muallif-o‘quvchi” yotadi”, deyilgan²³. Shu manbaning boshqa o‘rnida esa an‘naviy uchlik tushunchasi quyidagi tarzda tilga olingan: “Shuningdek, olimlar zamonaviy nemis olimlarining an‘naviy uchlik (epos, lirika, drama)ni qayta tekshirish

²¹ Эзоп; Масаллар. Тошкент: Akademnashr, 211. – 96 б.

²² Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. – М.: НПК «Интелвак», 2001. – Стб.39. (1600 стр).

²³ Коллектив. Теория литературы. Том III. Роды и жанры (основные проблемы в историческом освещении).— М.: ИМЛИ РАН, 2003.— С.105 (592 с).

konsepsiyasiga ham murojaat qilishadi”²⁴. Professor B.Sarimsoqov “badiiy obraz inson ongi, ruhi, his-tuyg‘ulari orqali aks etgan voqelik,” deb yozganda badiiy obraz asosida ham uchlik borligini ko‘rsatgan. Ya’ni, aynan inson ongi, ruhi va his-tuyg‘usi obraz asosini tashkil etadi.²⁵ Adabiyotshunos Q.Yo‘lchiyev esa “makon har qanday aspektdan qaralganda ham olamni uch o‘lcham (ya’ni uzunlik, balandlik, kenglik)da namoyon bo‘lishini” ko‘rsatadi.²⁶

